

MINIMAL MIYA DISFUNKSIYASI BILAN OG‘RIGAN BOLALAR BILAN ISHLASH: INTEGRATSIYA (LATO) METODI

Toshpo‘latova Nigina Ibrohimjon qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbeiston milliy pedagogika universiteti

Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (biologiya) 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Minimal miya disfunktsiyasi (MMD) bilan og‘rigan bolalar bilan ishlashda asosiy maqsad — ularning diqqatini jamlash va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini orttirishdir. Bu jarayonda ta’limni differensiyallashtirish va individuallashtirish tamoyillariga asoslangan Integratsiya (Lato) metodidan foydalanish samarali bo‘lib, o‘quvchilarda vizual xotirani shakllantirish, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish va o‘ziga ishonchni oshirishga yordam beradi. Ushbu metod nafaqat MMD bilan og‘rigan bolalarda balki sog‘lom o‘quvchilarda ham bilimlarni mustahkamlash, tafakkurni rivojlantirish va dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Minimal miya disfunktsiyasi (MMD), diqqat yetishmovchiligi, giperaktivlik, nutqiy rivojlanish, differensiyallashtirilgan ta’lim, integratsiya, vizual xotira.*

Kirish

Mashhur olim S. Klemens 1966-yilda minimal miya disfunktsiyasini (MMD) birinchi marta ilmiy jihatdan tasvirlab bergan. U bu holatni “markaziy asab tizimining regulatsiyasi buzilishi natijasida yuzaga keladigan chegara patologiya” sifatida ta’riflagan. Shuningdek, psixolog Lev Vygotskiy ta’lim jarayonida har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlagan. Bu fikrlar MMD bilan og‘rigan bolalar bilan ishlashda pedagogik yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi. Maqolada ko‘tarilayotgan asosiy muammo — MMD bilan og‘rigan bolalarning diqqatini jamlash, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini orttirish va ularni sog‘lom tengdoshlari bilan birga ta’lim jarayoniga samarali jalb qilishdir. Ushbu muammo pedagoglar, psixologlar, logopedlar hamda ota-onalar uchun dolzarbdir. Ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quvchilari bilan ishlashda ta’limni differensiyallashtirish va individuallashtirish metodlari, jumladan Integratsiya (Lato) metodining qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Bolalarda miyaning minimal disfunktsiyasi, yengil bolalar ensefalopatiyasi yoki giperkinetik surunkali miya sindromi - bu markaziy asab tizimining regulatsiyasi buzilganida yuzaga keladigan patologik holat bo‘lib, xatti-harakatlar, idrok, hissiy soha va vegetativ funktsiyalarda og‘ishlar bilan namoyon bo‘ladi. Oxirgi yillarda butun dunyoda maktab dasturlarini egallay olmayotganlar hamda xulq buzilishlari bo‘lgan bolalar soni yil sayin ortib bormoqda. Bunday bolalar klinik tashhisi bo‘lmagan, ya’ni me’yor va patologiya orasida chegara holatini egallaydigan bolalardir. Bu guruh bolalarning rivojlanishi me’yor

darajasining eng quyi chegarasida bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ularning aqliy yoki nutqiy rivojlanishida patologik o‘zgarishlar yuzaga chiqishi mumkin.

MMD eng keng tarqalgan nevropsixiyatrik patologiyalardan biridir. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining 5 foizida uchraydi, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu kasallik 22 foizni tashkil qiladi. Bolalarning deyarli yarmida, ular o‘tib ulg‘ayganlarida, barcha klinik ko‘rinishlar izsiz yo‘qoladi. Aqliy zaiflik to‘g‘ri davolash bilan deyarli har doim tiklanadi. MMD bilan zararlangan bolalar 2 guruhga ajratiladi:

1. Diqqat yetishmovchiligi va gipperaktivlik bo‘lgan bolalar
2. Nutqiy rivojlanishdan orqada qolayotgan va nutqida dislaliya kabi nuqsonlar bor bo‘lgan bolalar kiritiladi.

2-guruhga mansub bolalarni maxsus maktablarda nutq nuqsonlari tuzalgunga qadar o‘qitish shifokorlar tomonidan tavsiya etilsa, 1-guruhga mansub bolalar normal o‘quvchilar bilan birga taxsil olaveradi.

MMD bilan zararlangan bolalar bilan ishlashda ta’limni differensiyallashtirish maqsadga muvofiq. Differensiyallashtirilgan ta’limda har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari hisobga olinadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki ta’limni differensiallashtirish individuallashtirilgan ta’limni taqozo etadi. Individuallashtirilgan ta’limda o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan alohida ishlaydi. Shu sababli, biz taklif etayotgan INTEGRATSIYA (Lato) metodidan ham o‘qitishning aynan shu shaklida qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu metoddan 1-7-sinf gacha bo‘lgan o‘quvchilar orasida foydalanish mumkin. Biologiya kursini o‘qitishda aynan umumlashtiruvchi darslarida ushbu metoddan foydalanish tavsiya etiladi.

Quyida Integratsiya (Lato) metodi mexanizmi bilan to‘liq tanishtirib o‘tamiz:

Integratsiya (LATO) metodi - o‘qituvchi tomonidan sinfdagi o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda kubiklar yasaladi. Har bir o‘quvchi uchun 9 ta kubik to‘g‘ri kelishi kerak. Kubiklar bir xil rangda o‘quvchi e’tiborini tortadigan bo‘lishi kerak.

Biologiya hamda boshlang‘ich sinflardagi Tabiiy fan darsliklarida berilgan turli rasmlardan foydalanilgan holda kubikning 4 yoki 6 ta tomoniga turli rasmlar joylashtiriladi. Masalan; 9 ta oddiy barg, 9 ta murakkab barg, 1 yoki 2 yillik o‘simliklar rasmlaridan foydalanish mumkin. Ushbu rasmlar turli tartibda yopishtirib chiqiladi. 1-2- sinflar uchun tayyor kubikga yopishtirilgan suratlardan foydalanilsa, 3-7-sinflarda rasmlar alohida aralash holda kubik bilan beriladi va o‘quvchilar 2 tomonlama skotch orqali rasmlarni tartib bilan kubikga yopishtirib chiqishadi. Biologiya darslarini tashkil etishda pedagog 1-o‘rinda MMD bilan zararlangan bolalarni bir nechta dars davomida kuzatish orqali saralab oladi. Saralash jarayonida o‘quvchining darsga diqqati va o‘zlashtirishga e’tibor qaratiladi. Mavzular ketma-ketligi buzilmagan holda o‘qituvchi tomonidan nazariy ma’lumotlar tushuntiriladi. Umumlashtiruvchi darslardan oldin barcha o‘quvchilarga o‘tilgan bob yuzasidan berilgan ma’lumotlarni qayta o‘zlashtirish va darslikda berilgan rasmlar bilan tanishish vazifa qilib beriladi. Umumlashtiruvchi dars boshlanadi va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish maqsadida qisqa Blits savol- javob o‘tkaziladi. So‘ng har bir o‘quvchiga kubiklar

tarqatiladi va vazifa tushuntiriladi. 5 daqiqa vaqt ajratiladi shu vaqt ichida kubiklarning 4-6 tomoni tegishli rasm bilan to'ldirilishi kerak bo'ladi. O'quvchilarning topshiriqni qanchalik to'g'ri bajargani va darsda ishtirokiga qarab o'quvchilar baholanadi.

Metodning afzalliklari

1.MMD bilan zararlangan bolalarning darsga bo'lgan e'tiborini jalb qilish imkoni mavjud, va bu orqali o'quvchilarda visual xotira yaratiladi. Diqqatni jamlash orqali biologiya darslarida berilayotgan ma'lumotlarni chuqurroq o'rganish hamda o'qishga bo'lgan qiziqishni orttirish orqali ijobiy hissiyotlarni shakllantiriladi. Topshiriqni bajarish orqali rag'batlantirish esa o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini orttirishga sabab bo'ladi.

2.Normal hech qanday potologiyasi bo'lmagan o'quvchilarda esa ushbu metod o'tilgan mavzularni mustahkamlashga, izchillikni ta'minlashga, ularning ilmiy dunyoqarashi, tafakkurini oshirishga, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga shuningdek dars jarayonini qiziqarli ruhda tashkil etilishiga ko'makchi bo'ladi.

3. Ushbu metodda har bir o'quvchiga individual yondashilganligi uchun nisbatan o'zlashtirishi past yoki yuqorida ta'kidlangandek MMD bilan kasallangan o'quvchilar e'tibordan chetda qolib faqatgina liderlar darsda ishtirok etib qolmaydi balki guruning to'liq ishtiroki va ma'lumotlarni ma'lum darajada o'zlashtirilishiga erishiladi. Aynan individual tarzda har bir o'quvchiga topshiriqning berilishi o'quvchilar orasida o'zlashtirish jarayonida mavjud muammolarni aniqlashga imkon yaratadi.

Xulosa

Integratsiya (Lato) metodini qo'llash MMD bilan og'rigan bolalar uchun ta'lim jarayonida muhim yechim bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metod orqali o'quvchilarning diqqatini jamlash, vizual xotirani shakllantirish va o'qishga bo'lgan qiziqishini orttirish mumkin. Shuningdek, sog'lom o'quvchilar uchun ham bu metod o'tilgan mavzularni mustahkamlash, tafakkurni rivojlantirish va dars jarayonini qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. Har bir o'quvchiga individual yondashuv ta'limda teng imkoniyat yaratadi, o'zlashtirishdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga sharoit tug'diradi. Natijada, ta'lim jarayoni samaradorligi ortadi va bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Klemens S. Minimal miya disfunktsiyasi haqida ilk ilmiy ta'rif. 1966-yil.
2. Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi va ta'lim jarayonida individual yondashuv. Moskva, 1978.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim metodik qo'llanmalari. Toshkent, 2020.
4. <https://www.britannica.com/science/minimal-brain-dysfunction>
5. Internet manbalari: ilmiy maqolalar va ta'limiy portallar (PubMed, ResearchGate, Google Scholar).